

**O'ZBEKISTONDA DORIVOR TIRNOQGUL  
(*CALENDULA OFFICINALIS*) O'RGANILISH HOLATI**

---

*M.Sh. Shodiyorova*

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistiranti,*

*Samarqand, O'zbekiston*

*E-mail: [muattar97sh97@gmail.com](mailto:muattar97sh97@gmail.com)*

**Annotation:** The purpose of our study is to analyze the state of scientific research on *Calendula officinalis*, which is considered an integral part of the flora of medicinal plants of Uzbekistan..

**key words:** *Calendula officinalis*, distribution, flora, Uzbekistan, medicine.

**Annotatsiya:** Tadqiqotimizning maqsadi O'zbekiston dorivor o'simliklar florasining ajralmas qismi hisoblangan *Calendula officinalis* bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar holatini tahlil qilishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** *Calendula officinalis*, tarqalish, flora, O'zbekiston, tibbiyot.

Bugungi kunda dorivor o'simliklarga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda, butun dunyo insonlar sog'lig'iga alohida e'tibor berishi va undagi kasalliklarni, dorivor o'simliklar yordamida tabiiy yo'llar bilan davolash, dorivor o'simliklarni introduksiya qilish, yovvoyi turlarni madaniylashtirish ustida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10 - aprildagi PQ-4670-son qarori "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida so'nggi yillarda dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, dorivor o'simliklar yetishtiriladigan plantatsiyalar tashkil etish va ularni qayta ishlash borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi ma'lumotlarga ko'ra mahalliy floramizga o'sadigan o'simliklarning 750 ta turi dorivor hisoblanib, ulardan 112 ta turi ilmiy tibbiyotda foydalanish uchun ro'yxatga olingan, shundan 70 ta turi farmatsevtika sanoatida faol qo'llanib kelinmoqda. Butun dunyo farmasevtika sanoatida faol qo'llanib kelayotgan dorivor o'simliklardan biri bu *Calendula officinalis* L (Dorivor tirnoqgul)dir.

Dorivor tirnoqgul (*Calendula officinalis* L). - Vatani Janubiy va Markaziy Yevropa. O'rta Osiyoning barcha respublikalarida manzarali va dorivor o'simlik sifatida ko'p ekiladi. O'zbekiston florasida tabiiy holda uchramaydi, u manzarali va dorivor o'simlik sifatida ekib o'stiriladi.

Mamlakatimizda dorivor tirnoqgul o'simligini ekib o'stirish, uning dorivor xususiyatidan foydalanib dori maxsulotlarini ishlab chiqarish, uning

zararkunandalarini aniqlash va zararkunandalariga qarshi ko'rashish bo'yicha qator ilmiy ishlar olib borilgan. Dorivor tirnoqgul (*Calendula officinalis* L). yorug'likni sevadi. Urug'lari bilan ko'paytiriladi. Erta bahorda urug'i sepiladi, qator oralari 60 sm oralig'ida 2-3 sm chuqurlikka qadar ekiladi. O'g'itlash va yuqori namlik uzoqroq gullashga yordam beradi. Go'ng, superfosfat, ammiakli selitra, kaliy tuzidan foydalanish yaxshi samara beradi. Bir gektaridan o'rtacha quruq holda 18 kg hosil olinadi.(Muxammadiev B.Q. 2019)

Abdullayeva D. A.ning keltirgan ma'lumotlariga ko'ra tirnoqgul fenofazalarida suv stressi o'simlikning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta'sir qilib, gul hosili, fazalarga kirishi va davomiyligiga, efir moyi tarkibiga hamda prolin miqdoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi.(Abdullayeva D. A. 2023)

Tirnoqgul ko'p dorivorlik xossalarini jamlagani tufayli yurtimizdagi ko'plab hududlarda ekib o'stirilmoqda. Tirnoqgul o'simligining gullari tarkibida karotin va unga yaqin turadigan boshqa moddalar, efir moylari, azotli shilimshiq moddalar, qatronlar, organik kislotalar bor. Tirnoqgulning yer ustki qismida kalenden achchiq moddasi, oshlovchi moddalar, triterpendiollar va saponinlar mavjud. Urug'larida yog'li moy va biroz miqdorda alkaloidlar bor.

Tabiblar tirnoqgul o'simligidan siydik haydaydigan, balg'am ko'chiradigan, terlatadigan dori sifatida foydalanishgan. Badanning dog' tushgan joylari, gush kasalligi, mastitni davolashda shu o'simlikdan foydalanishgan. Bundan tashqari tirnoqgulni gepatit, xoletsistit, me'da yara kasalligi, gipertoniya, siydik-tosh kasalliklarini ham davolashda ishlatishgan. Tomoq og'rig'i, tish atrofidagi to'qimalar kasalliklari, og'iz elikishini davolash uchun tirnoqguldan tayyorlanadigan har xil dorilar buyurilgan. Ibn Sino ham tirnoqgulni kal kasalligi, belangini davolashda ishlatgan, ilon, chayon chaqqanda foydalanish tavsiya etilgan. Farangistonda bu o'simlik gullaridan yara jarohatlarini bitiradigan, terlatadigan vosita sifatida keng qo'llanilgan. Hind tabobatida uni quvvatga kirgizadigan, tetiklashtiradigan dori sifatida buyurilgan

Boltayeva Sh.A. ma'lumotlariga asosan zamonaviy tibbiyotda tirnoqgul preparatlarining markaziy nerv sistemasini tinchalantirib, qon bosimini pasaytirishi, yurak ishini maromiga keltirishi, kasallik tug'duruvchi ko'pgina bakteryalarga xalokatli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Bu preparatlardan jigar, taloq, buyrak, me'da, o't yo'llari kasalliklari, gipertoniya, ateroskleroz, ba'zi yurak kasalliklari, klimaksni davolashda foydalaniladi. Umuman olganda, bu o'simlikdan tayyorlangan dori vositalaridan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

- dezinfektsiyalash va antiseptik;
- yallig'lanishni yengillashtiradi;
- antispazmodik;
- diuretik va xoleretik ta'sirga ega;

- og'riq qoldiruvchi;
- qon va terini tozalash; (Boltayeva Sh.A. 2023).

Shuningdek mamlakatimizda Nazarova Z.A. tirnoqgul o'simligidan foydalanib gomeopatik eritma (tarkibida *Calendula D3* va *Quercus O* tindirmasini saqlagan eritma ) tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqilgan. Eritma gingivit, parodontoz, stomatitni davolashda chayish uchun, shamollashga qarshi va antiseptik vosita sifatida ishlatiladi (Nazarova Z.A.).

Kalendula asosi tayyorlangan dorilar juda samarali va kuchli bo'lgani sababli, o'z-o'zini davolashda undan o'zboshimchalik bilan foydalanish mumkin emas. Bunday terapiyani faqat malakali shifokor buyurishi mumkin. Masalan ayollar homiladorlik paytida ko'plab shifokorlar embrion normal rivojlanishi uchun ushbu o'simlikni butunlay foydalanmaslikni tavsiya qiladilar. Emizishda, kalendula asosidagi preparatlardan (spirtli ichimliklarsiz) foydalanishga ruxsat beriladi: Emizikli onada turli xil nafas olish kasalliklarini davolashda: sinusit, bronxit, tonsillit, yo'tal va burun oqishi, shamollash, faringit va sinusit. Laksatif sifatida gullarni tayyorlash ham keng qo'llaniladi. To'pgullaridan har xil tabletkalar tayyorlanadi. Chet ellarda gultojbarglaridan bo'yoq olinadi (Saminov A.A. 2022).

Muhammadiyev B. va uning hamkasblari tomonidan 2017 yilda Toshkent davlat agrar universiteti kichik tajriba xo'jaligi hamda Qashqadaryo viloyati Qamashi davlat o'rmon xo'jaligi 5 gektarlik tirnoqgul ekilgan dalalarida dorivor o'simliklarning zararkunandalarini aniqlash maqsadida tadqiqotlar olib borgan. tadqiqotlari natijasida bitta sinf hamda 7 turkumga mansub dorivor tirnoqgul o'simligida ko'p uchraydigan hamda iqtisodiy jihatdan zarari yuqori bo'lgan zararkunandalar aniqlandi. (Muhammadiyev B. 2019)

Mirkomilova Z.M. olib borgan tadqiqotlari natijasida dorivor tirnoqgul o'simligida fitonematodalarning 5 turkum 7 ta oila, 14 ta avlodga mansub 31 turi uchrashi (Mirkomilova Z.M. 2022), Xudayberganov N.A. zararkunanda hasharotlarning 4 turkum, 5 oilasiga mansub bo'lgan 9 turi uchrashi, bundan tashqari o'simligida asosan ildiz chirish, un-shudring, zang, kul rang chirish va qora dog'lanish kasalliklari uchrashi aniqlangan.

Bu kasalliklarni oldini olish maqsadida urug'larga fungitsid va insektitsid bilan ekishdan oldin ishlov berish texnologiyasi ishlab chiqilgan (Xudayberganov N. A. 2023).

Umuman olganda O'zbekistonda dorivor tirnoqgul (*Calendula officinalis L.*) o'rganish hali boshlang'ich bosqichda bo'lib, bu o'simlik buyicha qilingan ishlar yaqin 2-3 yil ichida amalga oshirilayotgani yaqqol ko'zga tashlanib turibdi, bu esa kelgusida bu o'simlikning yangi navlari yaratish, o'simlikning dorivorligidan foydalangan holda dori-darmon ishlab chiqish yangi texnologiyalarini ishlab chiqichni va dorivor tirnoqgul ustida tadqiqotlar olib borishni talab etiladi.

**Adabiyotlar:**

1. Abdullayeva D.A. (2023). TUPROQ NAMLIGINING CALENDULA OFFICINALIS O'SISHI, RIVOJLANISHI HAMDA HOSILDORLIGIGA TA'SIRI., International Scientific and Practical Conference <https://samaguni.uz/>
2. Boltayeva Sh. A. (2023): TIRNOQGUL O'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI VA DORI TAYYORLASH USULLARI. Analytical Journal of Education and Development Volume: 03 Issue: 09 | Sep-2023 ISSN: 2181-2624 [www.sciencebox.uz](http://www.sciencebox.uz)
3. Mirkomilova Z.M., Mirzaliyeva G.R. (2022). DORIVOR TIRNOQGUL FITONEMATODALARI FAUNASI TARKIBI VA EKOLOGIK GURUHLARI . PEDAGOGS Jurnal, 3(2), 101–104. Retrieved from <https://pedagoglar.uz/index.php/ped/article/view/176>
4. Muhammadiyev B. (2019). Доривор тирноқгул – Calendula officinalis L.нинг кемирувчи зараркунандаларига қарши микробиологик препаратлардан фойдаланиш. 3 (77). 86-90. <https://www.researchgate.net/publication/342552156>
5. Saminov A., Ne'matova D., Aliyeva M. (2022). MEDICINAL PROPERTIES OF THE FINGERNAIL PLANT AND METHODS OF DRUG PREPARATION. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7110387>
6. Xudayberganov N. A., Otayev O. Y., Sultanova Sh.Y. (2023). Calendula Officinalis L. in the Conditions of the Khorezm Oasis, Organization of Plantations. *Web of Agriculture: Journal of Agriculture and Biological Sciences*, 1(9), 91–95. Retrieved from <https://webofjournals.com/index.php/8/article/view/570>
7. Xudayberganov N. A., D. X. Otanazarov, R. X. Sobirova, Rajabboyeva M. O'. (2023). C. OFFICINALIS L. O'SIMLIGIDA UCHRAYDIGAN ZARARKUNANDALARINING TUR TARKIBI. *Proceedings of International Educators Conference*, 2(1), 535–540. Retrieved from <https://econferenceseries.com/index.php/iec/article/view/1353>
8. O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining qarori, 03.06.2014 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 2590 <https://uzpharmagency.uz/oz/menu/lekarstvennye-rastenija>